

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJASINI BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx13.04 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**MUXTAROV FIKRAT ABDULLAJONOVICH**

**MAHALLIY YERYONG‘OQ NAVLARI O‘SISHI, RIVOJLANISHI VA  
HOSILDORLIGIGA “MIKROO‘STIRGICH” BIOPREPARATINI  
QO‘LLASH ME‘YORI VA MUDDATLARINI TA‘SIRI**

**06.01.08 – O‘simlikshunoslik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2024**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
agricultural sciences**

**Muxtarov Fikrat Abdullajonovich**

Mahalliy yeryong‘oq navlari o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga  
“Mikroo‘stirgich” biopreparatini qo‘llash me‘yori va muddatlarini ta’siri.....3

**Muxtarov Fikrat Abdullajonovich**

Влияние нормы и сроков применения биопрепарата «Микроустиргич» на  
рост, развитие и урожайность местных сортов арахиса.....21

**Mukhtarov Fikrat Abdullajonovich**

Effect of application “Mikroustirgich” biopreparation dates and norms on growth,  
development and yield of local peanut varieties.....39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJASINI BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx13.04 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**MUXTAROV FIKRAT ABDULLAJONOVICH**

**MAHALLIY YERYONG‘OQ NAVLARI O‘SISHI, RIVOJLANISHI VA  
HOSILDORLIGIGA “MIKROO‘STIRGICH” BIOPREPARATINI  
QO‘LLASH ME‘YORI VA MUDDATLARINI TA‘SIRI**

**06.01.08 – O‘simlikshunoslik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.Phd/Qx912 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi ([www.tsau.uz](http://www.tsau.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'limi portali ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Xudayqulov Jonibek Bozarovich  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Yormatova Dilarom Yormatovna  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor  
Amanova Maxfurat Eshmuradovna  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** O'simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil 27-aprel soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel: (+99871) 260-48-00; fax: (+99871) 260-38-60; e-mail: [uag-info@edu.uz](mailto:uag-info@edu.uz); Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 2-qavat, kichik anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 550575-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot resurs markazi binosi. Tel.: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 15-aprel kuni tarqatildi.  
(2024 yil 01-apreldagi № 1-raqamli reyestr bayonnomasi).



*J.N. Fayziyev*  
**J.N. Fayziyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

*M.Z. Xolmurodov*  
**M.Z. Xolmurodov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, q.x.f.d., dotsent

*S.A. Yunusov*  
**S.A. Yunusov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Yeryong‘oq dunyo miqyosida nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun, balki sanoatning turli tarmoqlari uchun xom-ashyo, chorvachilik uchun yuqori to‘yimli ozuqa sifatida foydalaniladigan hamda agrotexnik ahamiyatga ega muhim moyli ekin hisoblanadi. Shu sababli har yili dunyo bo‘yicha 28,0 mln gektardan ortiq maydonda yeryong‘oq ekini yetishtirilmogda. “2023-yil dunyo mamlakatlarida yetishtirilgan yalpi yeryong‘oq hosili 50,5 mln. tonnani tashkil etgani holda, uning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi (18,6 mln. tonna yoki 37,0%), Hindiston (6,4 mln. tonna yoki 13,0%), Nigeriya (4,3 mln. tonna yoki 9,0%), AQSh (2,7 mln. tonna yoki 5,0%) va Sudan (2,5 mln. tonna yoki 5,0%) mamlakatlariga to‘g‘ri keladi”<sup>1</sup>. Ushbu mamlakatlarda yeryong‘oq yetishtirishda agrotexnologik elementlarni to‘g‘ri qo‘llanilishi hamda turli biologik preparatlar va organik o‘g‘itlardan foydalanish hisobiga yuqori va sifatli hosil olishga erishilmogda. Shu munosabat bilan har bir hududning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda yeryong‘oq navlarini to‘g‘ri joylashtirish, ularni parvarishlash agrotexnologiyasini ishlab chiqish hamda mavjudlarini takomillashtirish, mineral o‘g‘itlar me‘yorlarini tejash uchun turli xil biopreparatlar qo‘llashning maqbul muddat va me‘yorlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Dunyoning yeryong‘oq yetishtiruvchi yetakchi mamlakatlarida resurstejamkor agrotexnologiyalarni qo‘llanilishi hisobiga yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilmogda. Hozirgi kunda aholini oziq-ovqat, chorvani yem-xashak va sanoatni xomashyoga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda yeryong‘oqdan yuqori va sifatli hosil yetishtirish o‘ta dolzarb masalalardan biri bo‘lib, uni parvarishlashda turli xil mikroo‘g‘itlar va biopreparatlardan foydalanish orqali qo‘llaniladigan mineral o‘g‘itlar me‘yorlari sarfini kamaytirish bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda yeryong‘oq ekinini yetishtirish o‘simlikning morfologik va biologik xususiyatlari, yeryong‘oq navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirish texnologiyasi elementlari, jumladan ekish muddati, me‘yori, o‘g‘tilash va sug‘orish me‘yorlari o‘rganilgan hamda yangi navlari yaratilgan. Ammo, yeryong‘oq yetishtirishda biopreparatlar qo‘llashning maqbul muddat va me‘yorlarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “yaqin kelajakda qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlar samarasini oshirish va ushbu jabhani rivojlantirish yuzasidan agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini klaster asosida qayta ishlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, fermer va dehqonlar daromadini 2 barobarga ko‘paytirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sish sur‘atini 5 foizga yetkazish”<sup>2</sup> kabi muhim ustivor vazifalar belgilab berilgan. Shu

<sup>1</sup> <https://ipad.fas.usda.gov/cropexplorer/cropview/commodityView.aspx?cropid=2221000>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi №-60-son “2022-2026 yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” Farmoni.

boisdan, mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlari va chorvani ozuqaga bo'lgan ehtiyojlarini qisman bo'lsada qondirish uchun yeryong'oqning mahalliy navlarini parvarishlash agrotexnologiyalarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish bo'yicha olib boriladigan ilmiy-tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-martdagi 121-son "Mavjud yer maydonlaridan samarali foydalanish va 2021-yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Yeryong'oq qadimdan ekib kelinayotgan o'simlik bo'lib, dastlab Janubiy Amerika va Afrika mamlakatlarida yetishtirilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida qimmatli moyli va oziq-ovqat ekini sifatida yetishtirib kelinmoqda. Yeryong'oq yetishtiruvchi yetakchi xorijiy mamlakatlarda yeryong'oqning yangi navlarini yaratish, turli oziqa moddalarini qo'llash, yuqori va sifatli hosil yetishtirish va uni saqlash bo'yich ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, yeryong'oq yetishtirish texnologiyalari bo'yicha S.N.Nigam, A.G.Reddy, S.N.Deshmuk, W.S.Gregory, R.W.Gibbons, D.Cloud, I.P.Talanov, B.A.Kurbanova, T.N.Nabiyev, P.Nambiar kabi olimlar tadqiqot ishlarini o'tkazgan. Organik yeryong'oq yetishtirish bo'yicha P.Dawling, Abd El-Halim, A.K., A.M.Awad, M. E Moursy, yeryong'oqni ekish muddatlari bo'yicha M.Yousaf, A.Ahmad, R.Mozingo, T.Coffelt, G.Cornic, P.Murthiyar tadqiqot ishlari olib borgan.

O'zbekistonda dastlab yeryong'oq ekinini yetishtirish bo'yicha tadqiqot ishlari V.N.Chirkov tomonidan olib borilgan. X.N.Atabayeva, M.Amanova, A.Rustamov, T.B.Azizov, X.Bo'riyev, Sh.Nurmatov, A.Abdullayev, J.B.Xudayqulov va O'.X.Maxmudovlar tomonidan yeryong'oq o'simligining morfologik va biologik xususiyatlari, uning jahon kolleksiyasi, yeryong'oq navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirish texnologiyasi elementlari, jumladan ekish muddati, me'yori, o'g'tilash va sug'orish me'yorlari o'rganilgan hamda yangi navlari yaratilgan. Yeryong'oqning hosildorligi, oziqlanish maydoni va gerbitsidlarning ta'siri bo'yicha F.S.Achilov, yeryong'oqni g'o'za bilan hamkor ekin sifatida yetishtirish bo'yicha I.Ro'ziyev ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Ammo, Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida yeryong'oq yetishtirishda biopreparatlar qo'llashning maqbul muddat va me'yorlarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya

tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti O‘simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrası ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №2 “Dala ekinlarining zamonaviy yetishtirish texnologiyalarini yaratish va takomillashtirish” mavzusidagi amaliy tadqiqotlar doirasida bajarilgan (2019-2021 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** Toshkent viloyati tipik bo‘z tuproqlari sharoitida “Mikroo‘stirgich” biopreparatini qo‘llash me‘yori va muddatlarining yeryong‘oq navlari o‘sishi, rivojlanishi, biometrik va hosildorlik ko‘rsatkichlariga ta‘sirini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yeryong‘oq navlari urug‘larining laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligiga “Mikroo‘stirgich” biopreparatini ta‘sirini aniqlash;

“Mikroo‘stirgich” biopreparatini qo‘llash muddatlari va me‘yorlarining yeryong‘oq navlari poya balandligi, o‘sinh sur‘ati va rivojlanish davrlari davomiyligiga ta‘sirini aniqlash;

“Mikroo‘stirgich” biopreparatini qo‘llash muddatlari va me‘yorlarining yeryong‘oq navlari barg sathining shakllanishi, quruq massa to‘plashi hamda fotosintez sof mahsuldorligiga ta‘sirini aniqlash;

“Mikroo‘stirgich” biopreparatini qo‘llash muddatlari va me‘yorlarining yeryong‘oq navlari hosil elementlarining shakllanishi, biometrik, hosildorlik va urug‘ tarkibidagi moy miqdori ko‘rsatkichlariga ta‘sirini aniqlash;

yeryong‘oq navlarini yetishtirishda “Mikroo‘stirgich” biopreparatini qo‘llash texnologiyasining iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Toshkent viloyatining qadimdan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari, yeryong‘oqning mahalliy “Toshkent-112”, “Lider” va “Qibray-4” navlari, “Mikroo‘stirgich” biopreparati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib, yeryong‘oq navlarining o‘sishi, rivojlanishi, o‘suv davrining davomiyligi, barg sathining shakllanishi, quruq massa to‘plashi, fotosintetik faoliyatiga “Mikroo‘stirgich” biopreparatini qo‘llash muddatlari va me‘yorlarining ta‘siri hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dala va laboratoriya tadqiqotlari o‘simliklardagi biometrik o‘lchovlar, fenologik kuzatuvlar hamda tahlillar «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” va “O‘simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot ishlari” qo‘llanmalari, tuganaklar soni va vazni G.S.Posipanov, uslubida, fotosintetik faoliyat A.A.Nichiporovich uslubida, iqtisodiy ko‘rsatkichlar V.N.Polozhij uslubida, olingan ma‘lumotlarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida va B.A.Доспеховning «Методика полевого опыта» qo‘llanmasi asosida hisoblangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida mahalliy yeryong‘oqning navlari urug‘lari laboratoriya (98,0-99,3%) va dala sharoitidagi unuvchanligiga (75,11-85,1%) “Mikroo‘stirgich” biopreparatini 1 l/t me‘yorda ekishdan oldin qo‘llash urug‘lar unuvchanligini 1,6% dan 7,7% gacha oshirganligi aniqlangan;

“Mikroo‘stirgich” biopreparatini urug‘larni ekishdan oldin 1 l/t, gullash va

dukkaklash davrlari boshlanishida 3 va 6 l/ga me'yorlarda qo'llash asosiy poya balandligi, o'sish sur'ati va rivojlanish davrlariga ijobiy ta'sir etganligi hamda eng yuqori poya ko'rsatkichi "Toshkent-112" navida (60,6 sm), eng uzoq amal davri davomiyligi esa "Lider" navida (163-168 kun) bo'lganligi aniqlangan;

yeryong'oq navlarini yetishtirishda "Mikroo'stirgich" biopreparatini turli muddat va me'yorlarda qo'llash o'simlikning barg sathi "Toshkent-112" navida 3,29-3,58; "Lider" navida 3,31-3,57 va "Qibray-4" navida 3,30-3,63 ming sm<sup>2</sup>/tup shakllanishi hisobiga fotosintetik sof mahsuldorlik sutkasiga navlar bo'yicha 1,24-2,41, 1,78-2,73 va 1,37-2,29 g/m<sup>2</sup> ga ortganligi aniqlangan;

"Lider" va "Qibray-4" navi urug'lariga "Mikroo'stirgich" biopreparatini ekishdan oldin 1 l/t me'yorda, gullash fazasi boshlanishida 3 l/ga, dukkaklash fazasi boshlanishida esa 6-9 l/ga me'yorlarda qo'llanilganda hosil elementlarining shakllanishi, biometrik ko'rsatkichlariga ta'sir etishi, urug' hosildorligi navlar bo'yicha 17,2 va 15,6 s/ga ni tashkil etib, qo'shimcha urug' 6,38 s/ga (59,1%) va 6,30 s/ga (67,4%), hamda iqtisodiy rentabellik darajasini "Lider" navida 24,9% gacha, "Qibray-4" navida 31,8% gacha oshirishi aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Toshkent viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida yeryong'oqning "Toshkent-112", "Lider" va "Qibray-4" navlarini yetishtirishda "Mikroo'stirgich" biopreparatini qo'llash o'simlikning rivojlanish davri, asosiy poya balandligiga ijobiy ta'sir etgan, jumladan nazorat "Toshkent-112" naviga nisbatan unib chiqishdan pishishgacha o'tgan kunlar variantlar bo'yicha (153-156 kun), "Lider" navida 10-12 kun, "Qibray-4" navida 6-8 kun uzayganligi, asosiy poya balandligi nazorat "Toshkent-112" navida 52,2-60,6 sm hamda qiyosiy tahlil etilgan "Lider" navida 9,2-9,5 sm va "Qibray-4" navida 3,8-4,6 sm ga kamayganligi aniqlangan;

yeryong'oq navlarini yetishtirishda "Mikroo'stirgich" biopreparati bilan urug'larga ekishdan oldin 1 l/t hisobida ishlov berib, o'simlikning gullash davrining boshlanishida 3 l/ga va dukkaklash davrining boshlanishida 6 l/ga me'yorlarda qo'llanilganda, dukkak hosildorligi "Toshkent-112" navida 16,2 s/ga, "Lider" navida 22,2 s/ga, "Qibray-4" navida 20,7 s/ga ni tashkil qilib, nazorat variantlariga nisbatan navlar bo'yicha gektaridan 5,4; 7,2 va 7,1 s qo'shimcha dukkak hosili olingan;

yeryong'oq navlarini yetishtirishda "Mikroo'stirgich" biopreparati bilan urug'larga ekishdan oldin 1 l/t hisobida ishlov berib, o'simlikning gullash davrining boshlanishida 3 l/ga va dukkaklash davrining boshlanishida 6 l/ga me'yorlarda qo'llanilganda, olingan sof daromad "Toshkent-112" navida 3714,0 ming so'mni, "Lider" navida 8064,0 ming so'mni va "Qibray-4" navida 9434,0 ming so'mni va rentabellik darajasi tegishlicha 27,0; 65,1 va 70,9 % ni tashkil etgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dala va laboratoriya sharoitlaridagi tajribalarni zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, uslubiy jihatdan to'g'riligi, nazariy va amaliy natijalarni bir-biriga mosligi, olingan ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berilganligi, chiqarilgan xulosalar va qonuniyatlarning asoslanganligi hamda tadqiqotlarda to'plangan ma'lumotlarni



xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, shuningdek, Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama etilganligi hamda ilmiy nashrlarda chop etilganligi olingan natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida mahalliy yeryong'oq navlarini yetishtirishda "Mikroo'stirgich" biopreparatini qo'llash muddati va me'yorlarini urug'larning dala va laboratoriya sharoitidagi unuvchanligi, o'simlikning o'sishi va rivojlanishi, rivojlanish davrlarining davomiyliigi, barg yuzasining shakllanishi, quruq massa to'plashi, fotosintez sof mahsuldorligi, hosil elementlarini shakllanishi, hosildorligi va sifat ko'rsatkichiga ta'sirini ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida yeryong'oq navlarini yetishtirishda "Mikroo'stirgich" biopreparatini maqbul muddat va me'yorlarda qo'llanilishi hisobiga hosildorlikni ortishi va sifat ko'rsatkichini yaxshilanganligi hamda ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mahalliy yeryong'oq navlarida "Mikroo'stirgich" biopreparatini qo'llashning maqbul muddat va me'yorlarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

mahalliy yeryong'oq navlarini yetishtirishda "Mikroo'stirgich" biopreparatini qo'llash yuzasidan "Toshkent viloyati sharoitida mahalliy yeryong'oq navlaridan yuqori hosil yetishtirishda "Mikroo'stirgich" biopreparatini qo'llash samaradorligi" nomli tavsiyanoma tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 16-maydagi № 05/34-06/500-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur tavsiyanoma fermer xo'jaliklari, tomorqa yer egalari va ko'plab yeryong'oq yetishtiruvchilar uchun qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda.

Yeryong'oqning "Toshkent-112", "Lider" va "Qibray-4" navlari urug'larini ekish oldidan "Mikroo'stirgich" biopreparatini 1 l/t, gullash davrining boshlanishida 3,0 l/ga, dukkaklash davrining boshlanishida 6,0 l/ga me'yorlarda ildizdan tashqari oziqlantirish texnologiyasi Toshkent viloyatining Chinoz tumanidagi "Qo'ng'iro't Erdavlat fayz" fermer xo'jaligida 5,0 gektar maydonga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 16-maydagi № 05/34-06/500-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yeryong'oqning "Toshkent-112" navidan 16,8 s/ga, "Lider" navidan 22,7 s/ga, "Qibray-4" navidan 22,2 s/ga hosil olinib, "Mikroo'stirgich" biopreparati qo'llanilmagan nazorat variantlariga nisbatan 5,4-5,9 s/ga miqdorida qo'shimcha hosil olingan.

Yeryong'oqning "Toshkent-112", "Lider" va "Qibray-4" navlari urug'larini ekish oldidan "Mikroo'stirgich" biopreparatini 1 l/t ga, gullash davrining boshida 3,0 l/ga, dukkaklash davrining boshida 6,0 l/ga me'yorlarda ildizdan tashqari oziqlantirish texnologiyasi Toshkent viloyatining Bekobod tumanidagi "Qulmuhammad" fermer xo'jaligida 2,5 gektar, "To'lg'anoy" fermer xo'jaligida 2,0 gektar, "Omad" fermer xo'jaligida 1,5 gektar maydonga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 16-maydagi №

05/34-06/500-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yeryong'oqning "Toshkent-112" navidan 16,6 s/ga, "Lider" navidan 22,8 s/ga, "Qibray-4" navidan 21,5 s/ga hosil olinib, "Mikroo'stirgich" biopreparati qo'llanilmagan nazorat variantlariga nisbatan 4,9-6,2 s/ga miqdorida qo'shimcha hosil olingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari har yili Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan tuzilgan maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan, hisobotlar universitetning uslubiy va ilmiy kengashlarida muhokama qilingan, ishning asosiy ilmiy natijalari bo'yicha 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan 2 tasi mahalliy va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Yeryong'oqning ahamiyati, morfobiologik xususiyatlari va yuqori sifatli hosil yetishtirish agrotadbirlari bo'yicha olib borilgan mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar sharhi**" deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, internet ma'lumotlari, ko'plab olimlarning ilmiy ishlari natijalari o'rganilib, o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqotlarni o'tkazish sharoiti va uslubi**" deb nomlangan ikkinchi bobida, dala tajribalari o'tkazilgan mintaqaning geografik o'rni, tadqiqotlar o'tkazilgan hududning tuproq-iqlim sharoitlari va tadqiqot o'tkazish uslublari, o'rganilgan eryong'oq navlari tavsifi, eryong'oq etishtirishda tajribada qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar keltirilgan.

Dala tajribalari o'tkazilgan (2019-2021 yy.) Toshkent davlat agrar universiteti o'quv tajriba xo'jaligi dalasining tuprog'i qadimdan sug'oriladigan tipik bo'z tuproq bo'lib, tarkibida 0,8-1,0% chirindi, 0,058-0,089% atrofida azot, 0,141-0,184% ga yaqin fosfor va 0,154-0,148% atrofida kaliy mavjud. Mineral va organik o'g'itlar qo'llab ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish imkoniyati mavjud. Tuprog'i sho'rlanmagan. Yer osti suvlari 15 - 18 m dan chuqurlikda joylashgan bo'lib, sug'orish uchun tajriba xo'jaligi shimol qismidan oqib o'tadigan Bo'z suv

kanalidan foydalaniladi.

Mintaqa o'zining yuqori termik resurslari bilan mintaqa alohida o'rin tutadi. Ekinlarni yetishtirishda talab etiladigan mavsumiy foydali harorat yig'indisi aprel oyidan oktabr oyigacha o'rtacha 2200-2400 °C, sovuq bo'lmagan kunlarning davomiyligi esa o'rtacha 235-240 kunning tashkil etishi mumkin. Asosiy yog'ingarchiliklar qish-bahor oylarida bo'lib, o'rtacha 400-500 mm ni tashkil etadi.

Toshkent viloyatida eng sovuq oylar dekabr-yanvar oylari bo'lib, bu paytda havo harorati 0 °C dan -29 °C gacha yetishi mumkin. Hududda yog'ingarchilik miqdori ham turlicha bo'lib tekislik qismlarida yil davomida 261 - 316 mm hamda tog' oldi adir mintaqalarida esa 366 - 435 mm, tog' mintaqalarida 700 - 895 mm gacha atmosfera yog'inlari kuzatilishi mumkin.

Dala va laboratoriya tajribalarini o'tkazish, urug'larni ekish, fenologik kuzatuvlar olib borish, biometrik o'lchovlar, ekinni parvarishlash, hosilni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan izlanishlarda B.A.Доспеховning (1985) "Методика полевого опыта", O'zPITIning "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (Toshkent, 2007), B.M.Azizovning "O'simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot ishlari" (Toshkent, 2014), M.Amanovning "Yeryong'oq ekinining morfologik belgilarini o'rganish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar (Toshkent-2011) asosida o'tkazildi. Yeryong'oq hosildorligi bo'yicha ma'lumotlar B.A.Доспеховning "Методика полевого опыта" manbasidagi dispersion tahlil uslubi hamda Microsoft Excel dasturida matematik-statistik tahlil qilindi.

Tajriba tizimiga asoslanib o'sishni rostlovchi "Mikroo'stirgich" biopreparatini qo'llash texnologiyasi tadqiq etildi. Tajribada "Mikroo'stirgich" biopreparatini urug'larni ekishdan oldin, gullash va dukkakash fazalarida qo'llash samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.

Dissertatsiyaning **"Yeryong'oq navlari o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga "Mikroo'stirgich" biopreparatini qo'llash me'yorlari va muddatlarining ta'sirini o'rganish"** deb nomlangan uchinchi bobida mahalliy yeryong'oq navlarining laboratoriya sharoitidagi unish quvvati va unuvchanligi, dala sharoitida unib chiqish darajasi, yeryong'oq navlari urug'lariga "Mikroo'stirgich" biopreparati bilan ishlov berishning dala unuvchanligiga, rivojlanish davrlariga, poya balandligiga, barg sathi va fotosintetik faoliyatiga, tuganaklar soni, quruq modda miqdori, hosil elementlari va hosildorlik ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

Laboratoriya sharoitida yeryong'oqning "Qibray-4" va "Lider" navlari urug'lari unuvchanligi "Mikroo'stirgich" biopreparati qo'llanilgan variantlarda tegishli 98,5% va 99,3% tashkil etdi. Unuvchanlik "Mikroo'stirgich" biopreparati qo'llanilgan variantda "Lider" navida "Qibray-4" naviga qaraganda 0,6-0,8% ga yuqori bo'lganligi qayd etildi.

Olingan laboratoriya tajribalari natijalariga ko'ra, yeryong'oqning mahalliy "Toshkent-112" navida "Mikroo'stirgich" biopreparati qo'llanilganda unib chiqish quvvati 63,3 dan 71,6 gacha, unuvchanlikni esa 98,8% gacha ortishiga olib keldi. "Lider" navida biopreparat ta'sirida unib chiqish quvvati 8,2% ga ortganligi va unuvchanlik 97,9% dan 99,3% gacha oshganligi kuzatildi. "Qibray-4" navida ham

biopreparat qo'llash natijasida unib chiqish quvvati yuqori bo'lishi va unuvchanlik ham sezilarli darajada yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Dala sharoitida mahalliy yeryong'oq navlari unib chiqish dinamikasi yirik urug'li "Lider" navining 7-12 variantlarida 82,8 – 89,7% ni tashkil etgan. Tajribaning 12-variantida unib chiqish darajasi 2019-2021-yillarda tegishlicha 86,2%, 89,7% va 93,1% ni tashkil etgan. Natijalar "Toshkent-112" navi bilan taqqoslanganda "Lider" navida 3,1-3,5% gacha yuqori bo'lganligi kuzatilgan. Hosilni yig'ish davridagi haqiqiy ko'chat qalinligi variantlar bo'yicha o'rtacha 78,42 ming tup/ga dan 85,10 ming tup/ga gacha bo'lgan. Amal davri oxiridagi o'simlik tup soni bo'yicha ham "Lider" navida bir muncha yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Tajribada tadqiq etilgan yeryong'oqning "Qibray-4" navida dala sharoitida urug'larni unib chiqish darajasi 81,6-88,5% ga teng bo'lganligi qayd etildi. Unib chiqish davridagi haqiqiy ko'chat qalinligi esa 76,31-77,72 ming tup/gadan 82,37-84,29 ming tup/ga gacha bo'lganligi aniqlandi. Hosilni yig'ish davridagi o'simlik tup soni 77,31 ming tup/ga dan 83,98 tup/ga gacha bo'lganligi kuzatildi.

Yeryong'oq navlari urug'lariga "Mikroo'stirgich" biopreparati bilan ishlov berib ekilganda 2-3 kun erta muddatlarda unib chiqqanligi, shuningdek, mahalliy yeryong'oq navlarida "Mikroo'stirgich" biopreparatini amal davrida 6-9 l/ga me'yorda qo'llanilishi o'suv davrining "Toshkent-112" navida 3-7 kun, "Lider" navida 4-5 kun hamda "Qibray-4" navida 2-4 kun uzoqroq davom etishiga ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi.

Tadqiq qilingan omillarga bog'liq holda yeryong'oq navlarining foydali haroratni o'zlashtirish darajasi o'rganilgan, bunda "Mikroo'stirgich" biopreparati ta'sirida "Toshkent-112" navida foydali haroratlar yig'indisi 2347,4-2393,0 °C, "Lider" navi 2441,6-2477,9 °C va "Qibray-4" naviga 2401,1-2433,5 °C teng bo'lganligi qayd etilgan. Nazorat "Toshkent-112" navida urug' ekilganidan pishishgacha bo'lgan davrda eng yuqori jami foydali harorat yig'indisi urug'larga ekishdan oldin "Mikroo'stirgich" biopreparati bilan 1 l/t me'yorda ishlov berib ekilgan hamda gullash davrida 3 l/ga, dukkaklash davrida 9 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan 6-variantda 2393 °C ni tashkil etgan.

Yirik urug'li "Lider" navida jami foydali haroratlar yig'indisi 12-variantda 2477 °C ni tashkil etgan bo'lsa, "Qibray-4" navida 17-18-variantlarda 2433,5 °C tashkil etganligi qayd etilgan.

Yeryong'oq navlari urug'lariga "Mikroo'stirgich" biopreparati bilan ishlov berib ekilganda va o'suv davrida turli muddat va me'yorlarda oziqlantirilganda ushbu omillarning o'simlik poyasi balandligiga ta'sir etganligi aniqlangan. Tadqiq etilgan mahalliy yeryong'oq navlarida biopreparat qo'llanilmagan nazorat 1, 7, 13-variantlarda eng past poya balandligi kuzatilib, "Toshkent-112" navida 52,2 sm ni, "Lider" navida 42,8 sm ni, "Qibray-4" navida 48,4 sm ni tashkil etgan. Yeryong'oq poya balandligi "Mikroo'stirgich" biopreparatini qo'llash me'yorlari oshib borishi bilan oshib borib, eng yuqori ko'rsatkich o'simliklar gullashda 3 l/ga, dukkaklashda 6 l/ga me'yorda qo'llanilganda navlar bo'yicha "Toshkent-112" navida 60,6 sm ni tashkil etdi. Biopreparatni qo'llash me'yorlari gullash fazasining boshlanishida 3 l/ga, dukkaklash

**Mahalliy yeryong‘oq navlarini yetishtirishda “Mikroo‘stirgich” biopreparati  
qo‘llanilganda unib chiqish dinamikasiga ta’siri  
(2019-2021-yy.)**

T/r	Tajriba variantlari	Biopreparatni qo‘llash muddatlari			Unib chiqish dinamikasi, % - hisobida				Haqiqiy ko‘chat qalinligi, ming tup/ga	
		urug‘ni ekish oldidan	gullash davrining boshlanishida	dukkaklash davrining boshlanishida	2019	2020	2021	o‘rtacha	maysalanish davri	hosilni yig‘ish davri
<b>Toshkent-112 navi (nazorat)</b>										
1	Nazorat	-	-	-	75,9	79,3	82,8	79,3	75,53	75,11
2	Mikroo‘stirgich	1 l/t	-	-	82,8	82,8	86,2	83,9	79,91	79,52
3	Mikroo‘stirgich	1 l/t	3 l/ga	-	86,2	82,8	86,2	85,1	81,01	80,63
4	Mikroo‘stirgich	1 l/t	3 l/ga	3 l/ga	82,8	86,2	89,7	86,2	82,10	81,75
5	Mikroo‘stirgich	1 l/t	3 l/ga	6 l/ga	82,8	86,2	86,2	85,1	81,01	80,67
6	Mikroo‘stirgich	1 l/t	3 l/ga	9 l/ga	82,8	86,2	89,7	86,2	82,10	81,77
<b>Lider navi</b>										
7	Nazorat	-	-	-	82,8	79,3	86,2	82,8	78,82	78,42
8	Mikroo‘stirgich	1 l/t	-	-	86,2	86,2	89,7	87,4	83,19	82,85
9	Mikroo‘stirgich	1 l/t	3 l/ga	-	86,2	89,7	93,1	89,7	85,39	85,06
10	Mikroo‘stirgich	1 l/t	3 l/ga	3 l/ga	86,2	89,7	89,7	88,5	84,29	83,97
11	Mikroo‘stirgich	1 l/t	3 l/ga	6 l/ga	89,7	89,7	89,7	89,7	85,39	85,09
12	Mikroo‘stirgich	1 l/t	3 l/ga	9 l/ga	86,2	89,7	93,1	89,7	85,39	85,10
<b>Qibray-4 navi</b>										
13	Nazorat	-	-	-	79,3	82,8	82,8	81,6	77,72	77,31
14	Mikroo‘stirgich	1 l/t	-	-	82,8	82,8	89,7	85,1	81,01	80,63
15	Mikroo‘stirgich	1 l/t	3 l/ga	-	82,8	86,2	89,7	86,2	82,10	81,76
16	Mikroo‘stirgich	1 l/t	3 l/ga	3 l/ga	86,2	89,7	89,7	88,5	84,29	83,97
17	Mikroo‘stirgich	1 l/t	3 l/ga	6 l/ga	86,2	86,2	93,1	88,5	84,29	83,98
18	Mikroo‘stirgich	1 l/t	3 l/ga	9 l/ga	82,8	89,7	89,7	87,4	83,19	82,89

fazasi boshlanishida 9 l/ga qo‘llanilgan variantda esa, o‘simlik o‘shishi sekinlashgan va 59,8 sm ni tashkil qilgan. Yeryong‘oqning “Lider” va “Qibray-4” navlarida “Toshkent-112” naviga nisbatan pastroq ko‘rsatkichlar qayd etilgan. Bunda o‘simlik poya balandiligi biopreparat qo‘llanilgan variantlar ketma-ketligida mos ravishda 42,6-

51,1 va 53,5-56,0 sm ni tashkil etgan. Davrlararo o'sishning eng yuqori ko'rsatkichlari shonalashdan gullashgacha va gullashdan dukkakashgacha bo'lgan fazalarga to'g'ri kelganligi hamda, navlar bo'yicha 9,1 sm dan 21,2 sm gacha baland poya hosil qilib o'sganligi kuzatilgan.

Mahalliy yeryong'oqning "Lider" navida nazorat variantida o'simlikning barg sathi shoxlanish davrida 7,8 ming m<sup>2</sup>/ga, gullash davrida 21,3 ming m<sup>2</sup>/ga, dukkakashda 31,5 ming m<sup>2</sup>/ga, pishish davriga kelib 24,1 ming m<sup>2</sup>/ga ni tashkil etdi. Urug'larga ekishdan oldin 1 l/t me'yorda ishlov berib ekilgan variantda shoxlanish davrida hosil bo'lgan barg yuzasi nazorat variantiga nisbatan 0,4 ming m<sup>2</sup>/ga, gullash davrida esa 0,7 ming m<sup>2</sup>/ga, dukkakash davrida 2,6 ming m<sup>2</sup>/ga yuqori bo'lganligi aniqlandi. Pishish davriga o'tganda barcha variantlarda o'simlik barg sathining kamayishi kuzatildi jumladan, variantda pishish davridagi barg sathi 26,8 ming m<sup>2</sup>/ga bo'lganligi aniqlandi. "Mikroo'stirgich" biopreparati bilan 1 l/t me'yorda ishlov berib ekilgan hamda gullash davrida 3 l/ga, me'yorda qo'llanilgan variantda shoxlanishda ushbu navdagi eng past ko'rsatkichga nisbatan 0,5 ming m<sup>2</sup>/ga gacha ortganligi kuzatildi.

Mahalliy yeryong'oq navlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari natijalariga ko'ra o'rtacha bir tupdagi tuganaklar soni "Toshkent-112" nazorat navida biopreparat qo'llanilmaganda 26,3 dona/tup, turli muddat va me'yorlarda "Mikroo'stirgich" biopreparati qo'llanilganda 27,6 - 29,9 dona/tup, "Lider" navida biopreparat qo'llanilmaganda 29,4 dona/tup, "Mikroo'stirgich" biopreparati qo'llanilgan tajriba variantlarida bitta o'simlikda hosil bo'lgan tuganaklar soni 31,0 dona/tup dan 33,8 dona/tup gacha bo'lganligi aniqlandi. "Qibray-4" navida biopreparat qo'llanilishi natijasida hosil bo'lgan qo'shimcha tuganaklar soni 1,2 dona/tup dan 3,1 dona/tup gacha bo'lganligi aniqlangan. Yeryong'oqning har uchala navlarida ham "Mikroo'stirgich" biopreparatini qo'llash o'simlikda tuganak soniga ijobiy ta'sir etib, variantlar bo'yicha bir tupdagi tuganaklar soni ortib borganligi qayd etildi.

Olib borilgan tadqiqot ishida yeryong'oq o'simligida quruq modda to'planishi navlar va turli me'yor va muddatlarda "Mikroo'stirgich" biopreparati qo'llanilgan variantlarda o'rganib chiqildi. Olib borilgan tadqiqot ishida yeryong'oq o'simligida quruq modda to'planishi turli me'yor va muddatlarda "Mikroo'stirgich" biopreparati qo'llanilgan variantlarda tadqiq etilganda, "Lider" navi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlil qilinganda quruq massa to'planishi bo'yicha yuqori ko'rsatkich qayd etildi.


Ma'lumki, yosh yeryong'oq o'simliklari vegetatsiya davrining boshlang'ich davrlarida nisbatan kam rivojlangan ildiz tizimiga va barg yuzasining kichik maydoniga ega bo'lganligi sababli quruq massa miqdori ham yuqori bo'lmasligi aniqlandi. Biopreparat qo'llanilmagan variantda natijalar rivojlanish davrlari bo'yicha 13,5 - 19,7 - 27,8 - 35,4 s/ga ni tashkil etdi. Ekishdan oldin 1 l/t me'yorda "Mikroo'stirgich" biopreparati qo'llanilgan, gullash davri boshlanishida 3 l/ga, dukkakash davrida 6 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan tajriba variantida pishish davrida biopreparat qo'llanilmagan nazorat variantga nisbatan 19,4 s/ga yuqori quruq massa hosil bo'lganligi qayd etildi.

**“Mikroo‘stirgich” biopreparatini qo‘llash me‘yorlari va muddatlarining yeryong‘oq navlari barg sathining shakllanishiga ta‘siri, (2019-2021yy.)**

№	Rivojlanish fazalari bo‘yicha barg sathi, <i>ming m<sup>2</sup>/ga</i> - hisobida				Fotosintezning sof mahsuldorligi, <i>g/m<sup>2</sup> sutka</i> - hisobida	
	shoxlanish	gullash	dukkak- lash	pishish	gullash- dukkaklash davri	dukkaklash- pishish
Toshkent-112 navi (nazorat)						
1	6,4	15,3	28,5	21,5	2,49	3,02
2	7,5	17,1	33,7	25,2	2,54	4,26
3	7,7	16,9	35,9	26,6	2,29	4,88
4	8,3	18,7	37,2	27,4	2,26	5,09
5	8,5	18,9	39,2	28,7	2,15	5,24
6	8,4	18,9	38,9	29,2	2,05	5,43
Lider navi						
7	8,0	22,1	32,2	24,5	1,71	2,87
8	9,2	23,8	35,7	27,4	1,78	4,69
9	9,3	23,9	37,3	28,8	1,64	4,88
10	9,8	24,4	38,9	29,5	1,72	5,32
11	10,0	24,7	41,4	31,6	1,55	5,62
12	10,1	24,9	40,6	30,4	1,52	5,60
Qibray-4navi						
13	7,4	17,2	31,6	23,6	2,06	3,68
14	8,8	19,5	33,6	26,6	2,15	5,05
15	9,2	20,6	34,8	27,9	2,08	5,58
16	9,4	21,1	36,1	28,5	1,93	5,85
17	10,0	21,9	39,7	29,7	1,80	5,81
18	10,3	22,8	40,6	30,1	1,62	5,97

